

EKOLOGIK DUNYOQARASH SHAKLLANISHINING TARIXIY ASOSLARI

Fayziyev Abdulaziz Dilmurod o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi yo‘nalishining 4-kurs talabasi
Tel: (97) 266 02 28

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik dunyoqarash shakllanishining tarixiy-nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishga alohida urg‘u bergen holda qator bahsli fikrlar, mulohazalar hamda takliflar ilgari suriladi.

Tayanch so‘zlar: ekologik dunyoqarash genezisi, tadrijiy rivojlanish qonuniyatları, ekologik tafakkur, tabu, dilemma, stixiyali-primitiv, mikrozapovednik, antiekologik, totemizm, faktologik materiall, sotsiogenez, autoekologik, ekologik ong, ekologiyalashuv, ierarxik tartib.

Abstract: This article discusses the historical-theoretical foundations of the formation of the ecological worldview. A number of controversial opinions, opinions and proposals are put forward with a special emphasis on the formation of an ecological worldview.

Key words: genesis of ecological outlook, laws of gradual development, ecological thinking, taboo, dilemma, spontaneous-primitive, micro-narrative, anti-ecological, totemism, factual material, sociogenesis, autoecological, ecological consciousness, ecologicalization, hierarchical order.

Аннотация: В данной статье рассматриваются историко-теоретические основы формирования экологического мировоззрения. Выдвигается ряд спорных мнений, мнений и предложений с особым упором на формирование экологического мировоззрения.

Ключевые слова: генезис экологического мировоззрения, законы постепенного развития, экологическое мышление, табу, дилемма, стихийно-примитивное, микронarrатив, антиэкологическое, тотемизм, фактический материал, социогенез, аутоэкологическое, экологическое сознание, экологизация, иерархический порядок.

KIRISH

Bugungi kunda respublikamizda vujudga kelgan ekologik vaziyatni sog‘lomlashdirishda ekologik dunyoqarash genezisini, ijtimoiy-tarixiy asoslarining shaxs ma’naviy hayoti, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi va tadrijiy

rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Zero, xalqimiz madaniy-ma’rifiy taraqqiyotida, xususan, shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarning tarixiy, ilmiy-falsafiy nazariy asoslari va amaliy-uslubiy yo‘nalishlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi[1:27].

Shaxs ekologik tafakkur tarzi, u yashab turgan mintaqaga tabiiy-geografik iqlimi, shart-sharoitiga, millat yoki xalq mentalitetiga, turmush maromiga, tarixi, urf-odati, e’tiqodi, qolaversa muayyan jamiyatda yashovchi kishilarning tabiatni muhofaza qilishga doir ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog‘liq. Ya’ni shu munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi va ta’siri bois, shaxsda ekologik dunyoqarash, tabiatni muhofaza qilish an’analari shakllangan. Boshqacha aytganda, uning ekologik dunyoqarashi ijtimoiy borliq va ijtimoiy ongning o‘zaro aloqadorligida namoyon bo‘lgan.

Mazkur munosabat insoniyat taraqqiyotining ilk davrlarida shakllangan “odam tabiatga qulmi yoki uning xo‘jayinimi” dilemmasiga borib taqaladi va ularga javob kishilar ekologik ongi rivojlanish darajasidan qidirilgan[2:34]. Albatta, atoqli mutafakkirlarning bu savollarga muqobil javoblari to‘g‘riligini isbotlovchi dalillarini istagancha keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qadimgi davrda insonlar o‘zlarining tabiiy atrof-muhitga qaramligini, ya’ni tabiatning “quli” ekanligini tan olishgan va uni ilohiylashtirishgan. Masalan, Injilda Yer insonga yaratuvchi tomonidan sovg‘a qilinganligi va inson Yerning “xo‘jas” ekanligiga ishora qiluvchi ko‘plab ta’kidlar mavjud.

Ibtidoiy urug‘chilik jamoalarida insonlarning tabiat bilan birligini (stixiyали-primitiv bo‘lsa ham) asoslovchi «ekologik tafakkuri» mavjudligi haqidagi dalillar, asotirlar saqlanib qolgan. Ovchilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalarning ov va baliqchilik davrini buzmasliklari, hayvon bolalarini o‘ldirmasliklari, iste’mol uchun qancha mahsulot kerak bo‘lsa, shuncha ovlab, ortiqchasiga qat’iy “tabu” o‘rnatishlari buning isbotidir.

Qadimgi davrlarda ham tabiiy resurslarni saqlanib qolishiga o‘ziga xos mikrozapovedniklarning(ya’ni, muqaddas deb e’lon qilingan ko‘llar, daryolar, buloqlar, o‘simgilklar, baliqlar va hayvonlar yashovchi joylar) borligi ham sabab bo‘lgan. Bu esa totemizm elementlarini o‘zida ifoda etuvchi qadimgi ekologik dunyoqarashning moddiy namoyon bo‘lish shaklidir.

Albatta, bu davrlarda zamonaviy ma’nodagi ekologik ong bo‘lmagan, ya’ni ular o‘zlarining tabiat bilan chambarchas bog‘liqligini hozirgi davr odamlaridek anglashmagan. Ammo o‘sha davrdagi, misol uchun urug‘ning afsonaviy boshliqlarini o‘tmishning aksi sifatida, o‘limdan keyin hayot kechirish mumkinligi haqidagi qarashlarni kelajak sifatida, qabul qilingan hayot realliklari sifatida muqaddaslashtirilganligi sabab asrlar osha saqlanib qolayotgan buloqlar, o‘rmonlar

yoki tabiatning boshqa noyob qismlari himoya ostiga olingan hududlar sifatida qabul qilinishi mumkin[3:117].

Ekologik ong har qanday tarixiy davrda ekologik dunyoqarashning markaziy elementi hisoblanib, uchta o‘ziga xos ko‘rsatgichlari bilan xarakterlanadi, ya’ni:

1. Insonni tabiatdan qanchalik ajralib qolganligini yoki aksincha, u bilan uyg‘unligini (ko‘proq, uning ustunligini) “ko‘rsatishga” qaratilgan ruhiy-psixologik qatlam. Aksariyat hollarda insonning antiekologik xatti-harakatlarini “oqlashga” xizmat qiladi.

2. Tabiatning ekologik dunyoqarash “obyekti va subyekti” sifatida qabul qilinishi. Bunda inson tabiatning har qanday ta’sirini qabul qilishga tayyor, ammo o‘ziga xoslikka ega bo‘lmagan passiv obyekti yoki o‘zaro teng ta’sir sub’ekti sifatida e’tirof qilinadi.

3. Obyekt va subyektning o‘zaro ta’siri “pragmatik va nopragmatik” prizma orqali qabul qilinishi va ifodalashida, odamning ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatni o‘zgartirish va o‘zlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat maqomi moddiy yoxud ma’naviy qadriyatlar orqali belgilanadi.

Hozirgi kishilar ekologik ongi darajasini, ekologik dunyoqarashi xarakterini yaxshiroq tushunish uchun, ularning rivojlanish jarayonida qanday bosqichlardan o‘tganligini, turli davrlarning ekologik dunyoqarashi qanday xarakterda bo‘lganligini anglash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Shu bois sotsiogenez jarayonida inson ekologik ongi va dunyoqarashi qanday taraqqiyot bosqichlaridan o‘tganini qisqacha tahlil qilish maqsadga muvofiq[4:55].

Ekologik bilimlarni dunyoqarash shakli sifatida ularning rivojlanishini bizningcha quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – ibridoiy davr odamlarining tabiat va uning hodisalari to‘g‘risidagi sodda qarashlari. Bu insonning tabiatdan “ajralib chiqishidan» boshlanib, eramizdan oldingi III-I asrgacha bo‘lgan davr.

Ikkinci bosqich – tarixda antik deb atalgan davrda yashagan olimlar tomonidan, keyinchalik turg‘unlik sanalgan o‘rtta asrlarda to‘plangan tabiat haqidagi qarashlar. Eramizdan oldingi III-I asrlardan XIV asrgacha bo‘lgan davr.

Uchinchi bosqich – shu paytgacha to‘plangan juda ulkan faktologik materiallarni yanada boyitgan buyuk geografik kashfiyotlar davrida ularni sistemalashtirishga intilish. Boshqacha aytganda, uyg‘onish davri – XIV-XVIII asrlarni o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi bosqich – XVIII – XIX asrning boshlarida botanika, zoologiya, geografiya fanlari yutuqlarining ekologik g‘oyalar paydo bo‘lishiga turtki berishi – o‘smliklar va hayvonlar ekologiyasining mustaqil fan sifatida paydo bo‘lishi.

Beshinchi bosqich – XIX asrning boshidan 1866 yilgacha bo‘lgan davr – evolyutsion ekologiyaning shakllanishi va qaror topishi, ekologik tadqiqotlar chuqurlashtirilib, fanlararo ekologik o‘zaro aloqadorliklarga e’tiborning kuchayishi.

Oltinchi bosqich – 1866-yildan 1936-yilgacha. “Ekologiya” tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilib, autoekologik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda atrof-muhit o‘zgarishiga mos turlar tabiiy jamlanmasi o‘zgarishini qayd etuvchi faktoral autoekologiyaning paydo bo‘lishi.

Yettinchi bosqich – XX asrning 40 – 70-yillari. Tabiiy tizimlarni o‘rganishga kompleks-sistemali yondashuv natijasida mustaqil, fundamental biologik fan – umumiylar ekologiyaning sinekologik yo‘nalishida modda va energiya almashinushi jarayoniga matematik modellashtirish usulining joriy qilinishi.

Sakkizinchi bosqich – XX asrning 80-yillaridan hozirga qadar ilm-fan “ekologiyalashuvi”, ekologik ilmlar kompleksida inson omilini e’tiborga oluvchi sistemali tahlil ustuvorlashib, global ekologik monitoringning amalgalari oshirilishi.

NATIJALAR

Bu bosqichlarning umumiylar xususiyatlari va individualligi insonning tabiatdan “begonalashuvi” va “ekologik marginallashuvida” namoyon bo‘lib, ekologik dunyoqarash xarakterini belgilagan va tarixiy rivojlanish jarayonini xronologik turkumlashtirishga asos hisoblanadi. Ya’ni:

1. Arxaik davr ekologik dunyoqarashi – inson va tabiat o‘rtasidagi pragmatik munosabatlar shakllanish davri bo‘lib, ibtidoiy inson o‘zini tabiatning bir qismi deb hisoblashi bilan ajralib turadi. Bu odamning maksimal darajada tabiatga bog‘langanligi, yuqorida ko‘rsatilgan birinchi belgiga ko‘ra insonning jismoniy va psixologik jihatdan tabiat bilan jipsligini xarakterlaydi.

Arxaik davr ekologik ongi: subyekt va obyekt, moddiylik va ruhiylik, sabab va oqibatni hali bir-biridan ajratolmaydigan holda bo‘lgan. Shuning uchun ibtidoiy odam tabiiy muhitdagi narsa va hodisalarini o‘ziga o‘xshash xususiyatlarga ega deb tushungan. Masalan, hayotining ko‘p qismini hali o‘z ibtidoiyligini yo‘qotmagan qabilalar orasida o‘tkazgan V.R.Arsenevning fikriga ko‘ra, “arxaik ong o‘rmon yoki hayvonlar turmush tarzini xuddi odamlar turmush tarziga o‘xshash holda (animizm va animativ shaklida. S.K.) ko‘radi, ularga o‘zlarining ijobiy yoki salbiy sifatlarini ko‘chiradi: tabiatdagi narsa va hodisalar ham xuddi odamlar kabi ularidan yaxshiroq, yomonroq, adolatliroq, adolatsizroq va hokazo deb baholaydi”.

Mohiyatan olganda ibtidoiy odam uchun uning atrofidagi tabiiy muhit narsa va hodisalari “boshqacha qiyofadagi odamlardir”. Demak, inson va tabiat o‘rtasida printsiplar farq va chegara yo‘qdir. Xuddi shu holat ekologik ongning ikkinchi xususiyati – arxaik ongning tabiat dunyosini subyekt sifatida qabul qilishini (yanada

aniqroq aytildigan bo'lsa – bu munosabatlarning subyekt-obyekt munosabatlariga ajralmaganligini) ko'rsatadi[4:78].

2. Antik davr ekologik dunyoqarashi. Bu davrda tabiat xudolar tomonidan yaratilganligi haqidagi qarashlar paydo bo'ldi. Endi xudolar antromorf, ya'ni insoniy xususiyatlarga ega bo'lган. Masalan, grek panteoni xudolari – Zevs, Afrodita, Apollon, Prometey, Gefest va boshqalar kishilarga olovni berishi, metall bilan ishlashni o'rgatishi insonning tabiatni bo'ysundirishga bo'lган intilishini aks ettirgan.

Bu davr qarashida tabiat ham, insonlar ham xudolar tomonidan yaratilgani uchun xudolar oldida tengdir, ayni paytda ular bir-biriga begona. Tabiat ham o'z ruhiga, joniga ega (masalan, Aristotel fikricha yulduzlar ham jonlidirlar), ammo ularning joni insonnikidan ko'ra "sifatsizroq"dir.

3. O'rta asrlar ekologik dunyoqarashi. Insonning tabiatdan begonalashuvida mazkur uchinchi bosqich – monoteistik din, xususan, xristianlik paydo bo'lishi bilan yanada kuchaydi. Bunda dunyo narsa va hodisalari ierarxik tartibda joylashganligi, barchasining tepasida olamni va odamni yaratuvchi – Xudo turishi haqidaga g'oya asos hisoblanadi.

Yirik teolog Avreliy Avgustin buni "O Grade Bojiem" asarida: "... tirik narsa tirik emasdan, tug'ish va istakka qodir narsa bunday xislatga ega bo'limgandan tepeada joylashgan. Xuddi odamlar hayvonlardan yuqori bo'lgani kabi hissiyotga ega bo'lganlardan, aqlilari aqlga ega bo'limganlardan yuqorida turadi. Farishtalar odamlardan yuqori turgani kabi aqlilar orasidagi barhayotlar o'limga yuz tutuvchilardan tepeada turishadi. Bularning barchasi tabiatdagi tartibga mos ravishda biri boshqasining ustiga joylashadi", deb ifodalagan edi. Qisqasi, inson va tabiatning qarama-qarshiligi Xudoning irodasi bilan belgilangan.

XULOSA

Xulosa o'rniда aytishimiz mumkinki, ekologik dunyoqarash genezisi, retrospektiv asoslari va tarixiy taraqqiyotining diniy-teologik va ilmiy-falsafiy ildizlarini, kishilar ekologik tafakkuri, bilimi, ma'naviy-intellektual saviyasi bilan bog'liq obyektiv qonuniyatlarini, sub'ektiv omillari haqidagi muqobil falsafiy ta'limotlar qiyosiy tadqiqoti: ijtimoiy, siyosiy, gumanitar fanlar kompleksining dolzarb ilmiy-nazariy muammosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J.1. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. 570-b.
2. Abdullaev E. Ekologicheskie otnosheniya i ekologicheskoe soznanie. - Tashkent.: 1990, 219-b.
3. Arsenev V.R Zveri-bogi-lyudi. – M, 1991. S.160
4. Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat. – Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2012. 114.-b.